INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

O‘QUVCHILARNING MATN ORQALI IJODIY YOZUV KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Ernazarova Laylo Abdusaitovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
Javohirova Farzona Javohirovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning matn asosida ijodiy yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda metodik jihatlari keng yoritilgan. Unda o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, ularning tafakkurini kengaytirish va mustaqil ijodiy fikrlashga yo‘naltirish masalalari zamonaviy ta’lim talablari asosida tahlil etiladi. Shuningdek, ijodiy yozuv faoliyatining psixologik xususiyatlari turli ilmiy yondashuvlar asosida izohlanib, ular milliy ta’lim tizimi amaliyoti bilan uyg‘un holda ko‘rib chiqiladi. Maqolada dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan bir qator samarali metod va usullar amaliy misollar orqali bayon etilgan. Bundan tashqari, so‘nggi yillarda o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga tayangan holda, ijodiy yozuv mashqlarining o‘quvchilarning nutq madaniyati, mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy yozuv, matn asosida o‘qitish, yozma nutq, o‘quvchi faoliyati, mustaqil fikrlash, nutq madaniyati, metodik yondashuv, interfaol usullar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayoni, ijodkorlik, didaktik vositalar.

Аннотация. В данной статье подробно освещаются теоретические и методические основы формирования и развития навыков творческого письма учащихся на основе работы с текстом. Рассматриваются вопросы развития письменной речи учащихся, расширения их мышления и формирования навыков самостоятельного творческого подхода в соответствии с современными требованиями образования. Также анализируются психологические особенности творческой письменной деятельности с опорой на различные научные подходы, которые рассматриваются в тесной связи с практикой национальной системы образования. В статье представлены эффективные методы и приемы, применимые в учебном процессе, раскрытые на основе практических примеров. Кроме того, на основе результатов экспериментальных исследований, проведенных в последние годы, обосновывается положительное влияние творческих письменных заданий на развитие речевой культуры учащихся, их самостоятельного мышления и творческого подхода.

Ключевые слова: творческое письмо, обучение на основе текста, письменная речь, деятельность учащихся, самостоятельное мышление, культура речи, методический подход, интерактивные методы, педагогические технологии, образовательный процесс, креативность, дидактические средства.

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS
ISSN: 3030-332X Impact factor: 9,493 Volume 17, issue 1, Aprel 2026
https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR worldly knowledge
Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.
https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG
https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge
https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X

Abstract. This article provides a detailed overview of the theoretical and methodological foundations for developing and enhancing students' creative writing skills through text-based work. It examines the development of students' written speech, the expansion of their thinking, and the cultivation of independent creative approaches in accordance with modern educational requirements. The psychological aspects of creative writing activities are also analyzed based on various scientific approaches, which are considered in close connection with the practice of the national education system. The article presents effective methods and techniques applicable in the learning process, illustrated with practical examples. Furthermore, based on the results of experimental studies conducted in recent years, the positive impact of creative writing exercises on the development of students' speech culture, independent thinking, and creative approach is substantiated.

Keywords: creative writing, text-based teaching, written speech, student activity, independent thinking, speech culture, methodological approach, interactive methods, pedagogical technologies, educational process, creativity, didactic tools.

O‘quvchilarning ijodiy yozuv ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ona tili ta’limining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Yozma ifoda ustida ishlash nafaqat muloqot qobiliyatini oshiradi, balki tanqidiy fikrlash, tasavvur va mustaqil muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Matn asosida o‘qitish jarayonida o‘quvchilar turli yozma materiallar bilan ishlaydi, bu esa ularga g‘oyalarni tahlil qilish, izohlash va ijodiy qayta ishlash imkonini beradi. Bunday faoliyatlar nafaqat til malakasini, balki kognitiv rivojlanishni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Respublikamizda yosh avlodni mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish davlat darajasidagi masalaga aylangan. Ta’lim jarayonida boshlang’ich sinf o‘quvchilarini ijodiy faoliyatga yo‘naltirish muammosiga jahon pedagogika va psixologiya ilmida alohida e’tibor qaratilgan. Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish jarayonida ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xususiyatga egaligi, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste’dodning rag’batlantirilishi, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish1 asosiy tamoyillar sifatida belgilangan. Bunda pedagog xodimlarning intellektual sifatlari hamda kasbiy mahoratini yanada rivojlantirish, ta’lim va tarbiya resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantiradigan, o‘z fikrini erkin ifodalashga imkon beradigan va individual o‘quv xususiyatlarini hisobga oladigan metodik yondashuvlarni joriy etish muhimdir. Ijodiy yozuv mashqlari tizimli ravishda qo‘llanganda, o‘quvchilar til tuzilmalari bilan chuqurroq tanishadi, lug‘atini boyitadi va uslubiy hamda rhetorik qobiliyatlarini takomillashtiradi. Bundan tashqari, bunday mashqlar o‘quvchilarda hikoya, argumentatsiya va matn mantiqini qadrlashni shakllantiradi, bu esa akademik muvaffaqiyat va hayot davomida o‘rganish uchun zarurdir. Xorijlik olimlardan K.E.Izard, T.Radinger, Dj.Dyui, X.Geyvin, R.J.Sternberg, K.Sternberglar tomonidan shaxsning hissiy kechinmalari, fikrlash jarayonining psixologik-pedagogik xususiyatlari, o‘z-o‘zini tushunish qobiliyati, kognitiv jarayon, shaxsda pozitiv fikrlashni shakllantirish muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Biroq boshlang’ich sinf o‘quvchilarida ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir zamonaviy

1 Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. f. d…diss. – T., 2003. –280 b.

yondashuvlar mazmuni hamda unga ta'sir etuvchi omillar, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning alohida metodik tizimi maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur jihatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan bilim va tajribalarni o'zlashtirishida didaktik o'yinlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Dastlab, o'yin tushunchasining mazmun-mohiyatiga to'xtalib o'tamiz. Pedagogik jihatdan, o'yin – ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. Psixologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, o'yin bolaning faoliyatlarini, faolliklarini amalga oshirish shakli bo'lib, sof holdagi o'yin faoliyatini yuzaga keltiradigan sabab ehtiyoj bo'lsa, uning manbai taqlid va tajribadir. Bolalar narsalar bilan rolli qoidali, harakatli, didaktik mazmunli o'yinlarni o'ynaydilar.

Didaktik o'yin texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va ularda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini anglash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda didaktik o'yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'limtarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va xarbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o'ringa ega. Quyida, didaktik o'yin texnologiyalari amalga oshiriladigan ayrim noana'naviy dars shakllariga to'xtalib o'tamiz: Ishchanlik o'yini darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi — dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi. Teatrlashtirilgan dars - dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi — tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimedia, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars. Kim oshdi savdosi darsi - o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni xar bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi. Kontsert darsi — dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi kontsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi. "Tergovni bilimdonlar olib boradi" darsi - dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, kichik guruhlarda ishlash asosida keltirilgan ma'lumotlarni isbotlab, tushuntirish mashqlari bo'lib, bunda o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi. Integral (integratsiyalashgan) dars — bir nechta fanlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha

tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta’lim jarayonidagi faolliklarini ta’minlaydi. Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog’liqlikni o‘rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Mo‘jizalar maydoni” darsi — o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g’ri javoblar topish va g’oliblarni rag’batlantirish orqali o‘quvchilarda fikrlash, topqirlik, ziyraklik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Boshlang’ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinlarni amalda qo‘llash shart-sharoitlarini quyidagicha belgilashimiz mumkin: - didaktik o‘yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi; - har bir didaktik o‘yin mashg’ulotlariga o‘ziga xos xavfsizlik talablari qo‘yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to‘liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e’tiborida bo‘lishi lozim. Bundan tashqari o‘qituvchilar bir didaktik o‘yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini to‘g’ri belgilash va unga rioya qilishning o‘ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo‘llash talab qilinadi. Didaktik o‘yin turlarini tanlash mezonlari: - ishtirokchilar tarkibi bo‘yicha-o‘g’il bolalar, qiz bolalar, o‘smirlar, katta yoshdagilar uchun o‘yinlar; - ishtirokchilar soni bo‘yicha-yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflararo va ommaviy o‘yinlar; - o‘yin jarayoni bo‘yicha - fikrlash, o‘ylash, topag’onlik, harakatlar, musobaqa va boshqalarga yo‘naltirilgan o‘yinlar; Shuni ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi dars jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanar ekan, buning uchun albatta o‘yin mazmun-mohiyatidan kelib chiqib eng zarur vositalarni tanlay bilishi kerak. Chunki, zaruriy vositalar didaktik o‘yin samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, uzluksiz ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang’ich ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda didaktik o‘yin darslaridan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, bilimlarni o‘zlashtirishi, hamkorlikdagi faoliyat dinamikasining oshishi, ularning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishishni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O‘zbekiston. – T.: O‘zbekiston, 2024, 514b.
2. Aydarava U., Azizova N., Toirova M. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining – 4-sinfi uchun darslik. IV qism. – Toshkent.: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. – 78 b.
3. Aydarova U., Azizova N. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. III qism. – Toshkent.: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 bet.
4. Aydarova U., Azizova N., Toirova M. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. II qism. – Toshkent.: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. – 78 b.
5. Husanboyeva Q., Hazratqulov M. “Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi”. – Oliy o‘quv yurtlarining pedagogika fakultetlari (boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari) talabalari uchun. Darslik. –Toshkent.: “Innovatsiya-Ziyo” nashriyoti, 2020. - 375 b.
6. Toirov M.E. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I qism. – Toshkent.: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. – 80 b.
7. O‘zbek xalq maqollari. –Toshkent.: “Sharq” nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005

8. O.M.Jaborova., Z.A.Umarova., L.G.Babaxodjayeva. ”Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi”. – Toshkent.: “Malik print co”. 2021.
9. O.Roziqulov., M.Mahmudov., B.Adizov., A.Hamroyev.”Ona tili didaktikasi”. – Toshkent.: “Yangi asr avlodi”.2005.
10. Qosimova D. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi”. – Toshkent.: Ilm-Ziyo. 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili darsliklari” – Toshkent.: Sharq, 2023.
12. Shodiyev F. Ona tili. – Samarqand.: SamDU nashri. 2019.
13. L.Ernazarova, M.Mirsanova. Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi. Elektron darslik. Samarqand.2024.